

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI MAKROIQTISODIY VA HUDUDiy TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

UDK: 336:005.915:629.33(575.1)

IMINOV MAXMUDJON AZIMJON O‘G‘LI

**AVTOSANOAT TARMOG‘I KORXONALARIDA MOLIYAVIY
MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI
(“O‘zavtosanoat” AJ tarkibidagi korxonalar misolida)**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
tayyorlangan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. N.M. Rasulov.

Toshkent – 2026-yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. AVTOSANOAT TARMOG‘I KORXONALARIDA MOLİYAVIY MENEJMENT TIZIMINI TASHKIL QILISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	11
1.1. .. Avtosanoat tarmog‘i korxonalari moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va xususiyatlari.....	11
1.2. Avtosanoat tarmog‘i korxonalarda moliyaviy boshqaruv tizimining funksional elementlari	26
1.3. Korxonalarni moliyaviy barqaror rivojlantirishning milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi o‘rni	39
II BOB. AVTOSANOAT TARMOG‘I KORXONALARI MOLİYASINI BOSHQARISH TIZIMI SAMARADORLIGINING KOMPLEKS TAHLILI	49
2.1. Moliyaviy resurslar va moliyaviy natijalarni muvozanatlashgan boshqarish siyosati samaradorligining tahlili.....	49
2.2. Avtosanoat tarmog‘i korxonalarda aktivlar tarkibi va dinamikasi hamda ularni boshqarish siyosati samaradorligining tahlili.....	67
2.3. Avtosanoat tarmog‘i korxonalari moliyaviy barqarorligini boshqarish samaradorligi va uni korxonalar bozor qiymatiga ta’siri.....	81
III BOB. MOLİYAVIY MENEJMENTNING ZAMONAVIY USULLARIDAN FOYDALANISH ORQALI AVTOSANOAT TARMOG‘I KORXONALARI ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISHNING MOLİYAVIY SALOHİYATINI OSHIRISH YO‘LLARI	97
3.1. Avtosanoat tarmog‘i korxonalari faoliyatida strategik moliyaviy rejalashtirishning zamonaviy usullaridan foydalanish istiqbollari.....	97
3.2. Moliyaviy natijalar va rentabellikni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali korxonalar bozor qiymatini oshirish yo‘llari.....	112
3.3. Byudjetlashtirishning zamonaviy usullaridan foydalanish orqali pul oqimlarini samarali boshqarish yo‘llari	123
XULOSA.....	133
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	135

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida avtosanoat tarmog‘i korxonalarida moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish yuqori kapital sig‘imli, texnologik jihatdan tez yangilanuvchi va konyunkturasi siklik tarmoq sharoitida likvidlikni ta'minlash, investitsiya faolligini yuksaltirish hamda raqobatbardoshlikni saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Samarali moliyaviy menejment orqali pul oqimlari, kapital tuzilmasi, qarz yuki va investitsiya portfeli boshqaruvi optimallashtiriladi, bu esa yangi modellar ishlab chiqish, elektr va gibrid transport vositalariga o‘tish, raqamlilashuv va avtomatlashtirish loyihalarini barqaror moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Xususan, McKinsey Global Institute tahlilida «Investitsiyalar raqobatbardoshlik va unumdorlikning “qon tomiri” hisoblanadi» deb ta'kidlanishi investitsiya siyosatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va xarajatlarni samarali boshqarish raqobatbardoshlikni ta'minlashning hal qiluvchi sharti ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois, jahon iqtisodiyoti sharoitida avtosanoat tarmog‘i korxonalarida moliyaviy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va tashkiliy-moliyaviy mexanizmlarini chuqur ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda avtosanoat tarmog‘i korxonalarida moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish masalalari yuqori kapital sig‘imi, texnologiyalarning tez yangilanishi, talabning siklik o‘zgaruvchanligi va global raqobat sharoitida likvidlikni ta'minlash, investitsiya faolligini oshirish hamda korporatsiyalarning bozor qiymatini barqaror o‘sish trayektoriyasiga yo‘naltirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning alohida yo‘nalishi sifatida izchil o‘rganilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda, asosan, kapital tuzilmasi va kapital qiymati (WACC)ni optimallashtirish, pul oqimlari va aylanma kapitalni (zaxiralar, debitor-kreditor qarzlar) boshqarish modellarini takomillashtirish, investitsiya loyihalarini baholashda risk va noaniqlikni inobatga olgan diskontlash usullarini qo‘llash, valyuta va foiz stavkalari, xomashyo narxlari hamda ta'minot zanjiriga oid moliyaviy xatarlarni xedjirlash mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, “yashil” va raqamli

transformatsiya loyihalarini moliyalashtirishni hisobga olgan holda avtosanoat korxonalari moliyaviy strategiyalarini qayta ko'rib chiqish ustuvor yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekistonda sanoat siyosatini yangilash, tarmoqda raqobat muhitini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va jahon bozorlariga integratsiyalashuvni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategiya va dasturlarda avtosanoat tarmog'i korxonalarida moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan. Xususan, mamlakat sanoat siyosatini tahlil etuvchi tadqiqotlarda «O'zbekiston avtomobil sanoatida raqobat muhitini yaratish va ishlab chiqarish hajmini 1 millionta avtomobilga yetkazishni ko'zlamoda» degan yondashuv qayd etilib, bu esa tarmoqda investitsiyalarni jadallashtirish va moliyaviy boshqaruvni kuchaytirish zaruratini oshirmoqda. Amalda UzAuto Motors va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlikdagi moliyalashtirish shartnomalari, dilerlar va xaridorlar uchun maqbul kredit shartlarini joriy etish, qiymat zanjirini chuqurlashtirishga qaratilgan loyihalar moliyaviy menejmentni bozor mexanizmlari va strategik sherikliklar asosida rivojlantirish modeli shakllanib borayotganini ko'rsatadi. Shu bois, O'zbekistonda avtosanoat tarmog'i korxonalarida moliyaviy menejment tizimini takomillashtirishning institutsional, investitsion va raqamli mexanizmlarini ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-iyuldagi PQ-4397-son "O'zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 1-iyundagi PQ-3028-son "2017-